



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISI VA UNING INNOVATSION FAOLIYATI

Mayunusova Noila

332-umumiy o'rta ta'lif məktəbi
"Boshlangich ta'lif" o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish, kasbga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish, innovatsion kasbiy faoliyatini oshirish to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, metod, innovatsion faoliyat, innovatsion muhit, pedagogik yangilik, texnologiya, axborot texnologiyalari, integratsiya

Respublikamiz mustaqil davlat sifatida demokratik jamiyat qurish, dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rın olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bu o'z navbatida umumiy o'rta ta'lif muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish bilan belgilanadi. Pedagogik yangilik - pedagogik faoliyatda ilgari ta'lif jarayonida noma'lum bo'lgan o'zgarishlarni kiritish orqali ta'lif va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantiruvchi vositasidir. Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lif jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Bolaning tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning pedagogik texnologiyalarni ta'lif jarayoniga mohirona tadbiq qila olishi, ta'lifning yangi-yangi usul va metodlarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham o'quv jarayoniga pedagogik yangiliklarni kiritish, ta'lilda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, turli innovatsion usul va metodlaridan foydalanish, ta'lif samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.

Ma'lumki, bugungi kunda dars jarayonida "Aqliy hujum", "Krassvord", "Sinkveyn", "Muzyorar", "Keys stady", "Insert", "Venn diagrammasi" va "BBB" texnologiyalaridan o'quv jarayonini tashkil qilishda foydalanilmoqda. Mazkur maqolada dars jarayonining samarasi va sifatini ta'minlashga xizmat qiluvchi yana bir nechta innovatsion metodlarni tavsiya qilamiz.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

"Reklama" metodi, asosan, boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'z samarasini ko'rsatadi. Mazkur metodni dars jarayonining bosqichlari: o'tilgan mavzuni so'rash va yangi mavzuni mustahkamlashda qo'llash mumkin. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarga mavzu mohiyatiga mos tartibda tarqatma materiallarni beradi, ularda "Reklama qiling!" birikmasi yozilganligi asosiy qoidadir. O'quvchilar tarqatmalarda berilgan mavzuni, undagi shaxs yoki predmetga xos sifatlar, xatti-harakatlar, asardan parchalar, rolli ko'rsatmalar orqali reklama qilib berishlari kerak bo'ladi. Shuningdek, mazkur metoddan sinfdan tashqari o'qish darslari uchun she'r, ertak, hikoya va boshqa janrdagi kichik asarlarni tavsiya qilishda ham foydalanish mumkin. Bunda, o'quvchi yoki o'quvchilar jamoasi, boshqa o'quvchilarga o'qish uchun she'r, ertak, hikoya va boshqa janrdagi kichik asarlarni tavsiya qiladi, tavsiya qilish jarayonida reklamaning turli ko'rinishlaridan foydalaniлади. "Reklama" metodining afzalligini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- o'quvchilarning nutqi ravonlashadi, jamoa oldida nutq so'zlash, o'z fikrini erkin bildira olish ko'nikmalari shakllanadi;
- dars jarayonining mazmunli tashkil qilinishiga erishiladi, o'quvchilarning darsga qiziqishlari oshadi, ularda kitobga bo'lgan hurmat shakllanadi, badiiy asarlarni o'qishga bo'lgan ishtiyoqi kuchayadi;
- o'quvchilarning dunyoqarashi kengayadi, sog'lom raqobat muhiti paydo bo'ladi, o'zgalar fikrini hurmat qilish, ularni diqqat bilan tinglash, o'z diqqatini jamlash va fikrlash qobiliyatları shakllanadi.

O'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta'limgartabiya jarayonini tashkil qilish, o'z-o'zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohalarida aks etadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z fanini o'qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta'limgartabiya jarayonini tashkil etishi va baholash uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni egallahdan iborat. Shu bois, o'qitish va tarbiyalash jarayoni ta'limgartabiya sohasida innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etishni va o'z-o'zini rivojlantirishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'limgartabiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sod farmoni va mazkur farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020 yil 6 noyabrdagi qabul qilingan "Ta'limgartabiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sod qarorda mamlakatimiz ta'limgartabiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziylolilarga bo'lgan hurmat e'tiborni yanada oshirish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, tizimda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Bilimga asoslangan iqtisodiyot ta'lim va kasbiy tayyorgarlikning yangi modellarini talab qiladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish kasbiy rivojlantirishni talab etadi. Buning uchun dunyo ilm-fanida o'qituvchi kompetensiyasini shakllantirish, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish hamda kasbiy rivojlantirish bo'yicha pedagog va uslubchi olimlar tomonidan o'rganilgan ilmiy-nazariy qarashlarni bilish lozim. Jahonda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashni metodik jihatdan takomillashtirish, keng profilli mutaxassislar tayyorlash, talabalarning kreativligi, kasbiy kompetentligi, ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining olib borilishi alohida ahamiyatga ega.

Xorijiy davlatlarda o'qituvchining pedagogik faoliyatini takomillashtirish masalalari keng o'rganilib kelinmoqda. Yevropa mamlakatlarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning turli jihatni Chjay Xunyun, Ye.N.Galiullina tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy metodikasini oshirish, o'quv faoliyati samaradorligining yuqori bo'lishi hamda ilg'or xorijiy tajribalarni boshlang'ich ta'limga tatbiq qilish zarurati izohlanadi. Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'limning keyingi bosqichiga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlash, o'qitish sifati va samaradorligini ko'tarish, xalqaro standartlarga moslashtirish, ilmiy savodxonligini oshirish, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda boshlang'ich ta'limda o'qitish va pedagogik-psixologik masalalari N.Muslimov, Y.G'oziyev, K.Mamedovlar, kasbiy tayyorgarlikni innovatsion texnologiyalar hamda metodlar orqali shakllantirish N.N.Azizzodjayeva, O'.Q.Tolipov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan fan-texnika taraqqiyoti, jamiyatdagi o'zgarishlar, zamonaviy ta'lim tizimining yuqori darajada yangilanish bosqichida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini qo'ymoqda. Innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning yangilangan talablardan biri, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga sharoit yaratish, tez o'zgaruvchan mehnat mazmuni va uzluksiz yangilanib boradigan bilimlar zaruratini o'rgatishdan iborat.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lif-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sod farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 24.10.2020 y. 2. Muslimov.N.A.Kasb ta'lif o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari: ped.f.dok....diss.-T.:2007,-315.b
3. Чжай Хунюнь. Методические подходы к совершенствованию подготовки будущих учителей начальных классов к применению информационных и коммуникационных технологий в профессиональной деятельности дис. ...канд.Пед. наук: 13.00.08, 2018.- 175 с.
4. Галиуллина Е. Н. Методическая подготовка будущих учителей начальных классов к обучению младших школьников решению "открытых" задач : дис. ... канд. пед. наук : 13.00.02, 2006 198 с.
5. Sh.Sharipov, N.Muslimov, M.Ismoilova. "Kasbiy ta'lif pedagogikasi". Metodik qo'llanma.-T.2005 y 6. G'affarov E. Innovatsiya, ijtimoiy innovatsiya va innovatsion faoliyati ilmiynazariy èndashuvlar. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2019 yil, 10-son. 153-157 betlar.